

TILDA PSIXOLINGVISTIK TADQIQ MUAMMOLARI

Zulxonov Mustafu Jo'rayevich,

f.f.n., dotsent v.b., Renessans ta'lim universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

mail: zulxonovmustafo@gmail.com

Rashidova Dinara

Renessans ta'lim universiteti,

tarix va filologiya fakulteti XTA 4-23 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15690330>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 17th June 2025

KEYWORDS

psixologik yo'nalish,
psixolingvistika, lingvistik
psixologiya, Semantik-
psixologik qarash,
Psixolingvistik birliklar,
Lingvistik psixologizm,
etnolingvistika va psixologik
sotsiolingvistika, semantik
psixologizm

ABSTRACT

Maqolada tilda psixolingvistik tadqiq muammolari va uning tilda o'rganilishi ochib berilgan. Muammoning o'ziga xosligi, turlari, tilda organilishi va o'rganilish usullari korsatilgan.

Tilshunoslikda psixologik yo'nalish bilan bog'liq muammolar naturalistik va logik ta'lim egalarining xatti-harakatlari bilan bog'liq ravishda kirib kelgan. Bu borada V. fon Gumboldt konsepsiyasiga e'tibor bergan holda, semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv lozimligini ta'kidlashida kuzatiladi. Bu holat psixolingvistika bilan shug'ullangan barcha maktab a'zolarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Qariyb yuz yildirki, psixologiyaning turli xil aspektlarida nutq o'stirishning nutqiy ijodiy yondashuvdagi suhbat me'yorlari faoliyatiga aloqadorligi alohida o'rganilgan.

Ma'lumki, psixolingvistika asoschisi nemis tilshunos olim G.Shteyntal (1823-1899) hisoblanadi. Uning eng muhim asarlari sifatida «Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi» deb nomlangan bo'lib, 1850 yilda yozilgan. Undan keyin 1851 yilda yozgan «Tillarning kelib chiqishi», 1855 yilda yozilgan «Grammatika, logika va psixologiya», 1860 yilda yozgan «Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteristikasi» asarlarini sanab o'tish lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, lingvistik biologizmning o'ziga xos xususiyatlari Shleyxer ta'limotida o'z ifodasini topgan bo'lsa, logik grammatizm Bekker ta'limotida jonlantirildi. Shteyntal esa o'z ijodiy o'qishlarida bu jaryonni individning xatti-harakati va xalq psixologiyasi taraqqiyotiga tayanib o'rganadi. Tilshunoslik-faqat individning psixologik xarakteri bilan chegaralanmaydi, balki uning nutqini o'rganadi, ayni zamonda xalqning psixologiyasini, uning tilini ham o'rganadi.

Shteyntal ilmiy qarashlariga Potebnya va Paul, Boduen de Kurtene ham Sossyur, Sepira va Sherbalar e'tibor qaratadi. Biroq psixolingvistika bir xalq misolida rivoj topgan emas.

Potebnya va Paul qarashlarida psixologik asosi gapning semantik qurilishi, grammatik kategoriyalari, tilning leksik ma'nolari uchun xizmat qiladi. Psixologik tushunchalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog'liqligini, shuningdek, tilning tarixiy-madaniy faktor ekanligini ifoda etadi.

Boduen de Kurtene va F.Sossyur nutqiy ijodiy yondashuvning ijtimoiy xarakter kasb etishini alohida ta'kidlashadi. Bu konsepsiya turli xil individual-leksik birliklarning paydo bo'lish omillarini, ijtimoiy-grammatik assotsiatsiyasining esa uzviy aloqadorligini anglatadi. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, til va nutq muammosiga doir tilning funksional (vazifaviy) belgilarini, shuningdek, til qurilishini va nutqiy-ijodiy yondashuvni o'rgangan edi.

Ma'lumki, vazifaviy-struktur yo'nalish sanalgan psixolingvistika, ya'ni lingvistik psixologiya uchun muhimdir. A.Marti o'z ishlarida, jumladan, 1908 yilda yozgan «Umumiy grammatika va falsafiy tilni tekshirishning isbotlanganligi», A.Gardineraning 1932 yilda yozgan «Til va nutqning nazariyasi», K.Byuleraning 1934 yilda yozgan «Til nazariyasi» asarida aynan vazifaviy-struktur yo'nalish masalasida ilmiy izdanishlar olib borishgan. Ta'kidlash joizki, psixologik idealar lingvistik yo'nalishlar uchun muhim bo'lib, psixologizm va nutqiy faoliyatni tushunishni idrok etishda simvolik alomat kasb etadi. Buni logik-ma'noviy tahlilda lingvistik yo'l bilan amalga oshiriladi.

Psixologik komponentlar strukturalizm, etnolingvistik nazariyalar, semiotika yo'nalishlarida o'rganilgan va tadqiq etib kelinmoqda. SHunga ko'ra, psixologik yo'nalishlarning muhim ko'rinishlari til uchun xarakterli bo'lib, psixolingvistikaning yuzaga kelishini ta'minlagan. 1954 yilda shu masalaga bag'ishlangan, ya'ni psixologlar va tilshunoslar hamkorligida AQSHning Blumington shahrida seminar bo'lib o'tgan edi. 1957 yilda esa CH.Osgud «Ma'nolar o'zgarishi» 1961 yilda esa o'zining psixolingvistikaga doir muhim bo'lgan ishi «Psixolingvistika»ni yaratdi. Amerikalik psixolingvistlar ana shu ishlarga tayanib deskriptiv va transformatsion tekstlarni yuzaga keltirishgan hamda xulq-atvor psixologiyasi, ayniqsa, «ongdagi xalq-atvor modeli»ni Osguda va uning informatsion nazariyasi hamda matematik nazariyasiga bog'liq ekanligini isbot qildilar.

Semantik-psixologik qarashlarda nutqiy jarayoni aynan nutqning qurilishi, nutqning vaziyati, shuningdek, nutqning kontekstda tutgan o'rni masalalari to'laqonli ravishda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Rus tilshunosligida bu muammolar bilan L.Sherba, L.Vo'gotskiy kabi olimlar mutnazam shug'ullanib kelishgan. Bir qancha psixolingvistlarni A.Leontev boshqarib kelgan. Natijada 1967 yilda «Psixolingvistika», 1969 yilda «Psixolingvistik birliklar nutqiy vaziyatning muhim vositalari», 1969 yilda «Til, nutq, nutqiy faoliyat» deb nomlangan asarlarini yaratgan. Angliyada Fyors Xolideya boshchiligida kontekst vaziyati, nutqiy vaziyat, nutqiy kontekst masalalari bilan bevosita shug'ullanuvchi maktab yaratilgan. Yaponiyada esa bevosita «tilning paydo bo'lishi»ni o'rganuvchi maktab mavjud bo'lib, u asosan, til va uning inson faoliyatiga aloqadorligini, til va nutqiy jarayonni o'rganish asosida nima beradi, degan masalalar ustida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ko'rinadiki, til jamiyatning asosiy aloqalarlashuv vositasi sifatida tushuniladi, shuning uchun tilni har tomonlama o'rganish va tahlil etib berish lozim bo'ladi. Insonning ijtimoiy-siyosiy qarashlarda tildan va uning elementlaridan foydalanish muhimdir. Bunda til elementlari yordamida osil qilingan ma'nolar til belgilari yordamida ma'no hosil qilib, ular ayni zamonda inson 'atti-harkatiga xos tushunchalarni tushunish imkonini beradi beradi.


Lingvistik psixologizmning paydo bo'lishida naturalizm va logizmning alohida o'rni bor. Psixologiya ana shu jarayonlarning bir ko'rinishi bo'lib, psixologizm tilning boshqa xususiyatlarini, xususan, uning nutqiy faoliyati bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Psixologik jarayon bilan biz sotsiolingvistika va struktural tilshunoslikda, lingvosemiotika va matematik lingvistikaning bo'limlarida tanishib chiqamiz.

Nutqiy faoliyat jarayonini psixofizik aspektlarini tadqiq etish gapiruvchilar tomonidan nutqning fiziologik asosini o'rganishni taqozo etadi. Tomson bu haqda to'xtalib, quyidagilarni bayon etadi: «Biz hozirgi zamon tilini tushunish asosida uning, ya'ni tilning biz tomondan so'zlashuv jarayonida gapirish, fikr yuritish, eshitish, o'z navbatida bizning organizmimizda psixologik faktorlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi, umuman til mavjudligi biz uchun psixologik va fiziologik jarayonlarda ma'lum bo'ladi».

Nutqiy faoliyatning fiziologik asosi haqida Blumfeld va psixolingvistlar to'xtalib, ularni tarixiy transformatsion sharoit taqozosi bilan bog'lab, nutq tuzilishiga xos deb ta'kidlaydilar.

Lingvistik psixologizmning asosiy maktablarida etnolingvistika va psixologik sotsiolingvistika, semantik psixologizm, psixologiya, nutq va psixolingvistika masalalari muhim deb qaraladi. Ularning ilmiy qarashlari asosida turli- tuman psixologik maktablarda o'qishlar yuzaga kelgan. Muhimi shundaki, psixologik yo'nalishlarning barchasida psixolingvistikani psixologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida paydo bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi.

Psixolingvistika



Psixologiya Tilshunoslik

Xullas, zamonaviy tilshunoslik tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Buning asosini, shubhasiz, tilshunoslik va boshqa fanlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlaydi. Psixolingvistika ham ana shunday jarayonning mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000.
2. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманит. ун-т, 1999.
3. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007.